

**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**AVGUST, 2025**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiylar.com>



**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

#### **Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat*

*KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI*

*MUAMMOLARI..... 6-9*

*Iskandarov Orifxon*

*TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI ..... 10-12*

*Odinayev Mirjalol*

*"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA*

*QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA*

*SOLISHDA INNOVATSION YECHIM ..... 13-18*

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Karimov Nurbek*

*TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON*

*TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI ..... 19-22*

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

*TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI ..... 23-25*

*Xalilov Baxodir*

*ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY*

*VILOYATI MISOLIDA ..... 26-31*

*Xoliqova Ra'noxon*

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" ..... 32-34*

*Xasanova Nargiza*

*YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB*

*AHAMİYATI ..... 35-38*

### IQTISODIYOT FANLARI

*Salomov Temurbek*

*THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:*

*A CASE STUDY OF UZBEKISTAN ..... 39-43*

*Raxmanov Ulugbek*

*TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ*

*TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH ..... 44-45*

*Toshtemirov To'lqin*

*KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI ..... 46-49*

*Mansurova Sayyora*

*INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA*

*ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI ..... 50-53*

*Rajabov Alibek*

*INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH ..... 54-57*

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

*EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM*

*GLOBAL EXPERIENCES ..... 58-60*

## **FALSAFA FANLARI**

*Abdullayev Sodiqjon*

*MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI*..... 61-66

*Gafurova Munojat*

*O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI*..... 67-70

*Davronov Bahodir*

*SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI*..... 71-76

*Latipov Sardor*

*KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI* ..... 77-81

## **FILOLOGIYA FANLARI**

*Xoliyorova To'lg'anoy*

*O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI*..... 82-83

*Ro'ziyev Temur*

*ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI* ..... 84-92

*Gulmuradova Sobira*

*"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI*..... 93-95

*Qosimova Malika*

*SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA* ..... 96-99

*Bahromjonova Shahnoza*

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:  
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* ..... 100-102

*Ayimbetova Damekhan*

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI  
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* ..... 104-107

## **YURIDIK FANLARI**

*Komilov Avazbek*

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,  
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

*Shamsitdinova Manzura*

*TEACHING LISTENING COMPREHENSION* ..... 111-112

*Xadiyev Azizbek*

*"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI*..... 113-116

*Укташов Комрон*

*РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН*..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
<b>TIBBIYOT FANLARI</b>	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
<b>PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH .....</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

## **"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFIZMLARNING MILLIY – MADANIY XUSUSIYATLARI**

**Gulmuradova Sobira Rustam qizi**

Email: [gulmurodovasobira@gmail.com](mailto:gulmurodovasobira@gmail.com)

Tel: +998995939295

Samarqand, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Xushkeldi" dostoni matni tarkibidagi etnografizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Etnografizm, izoh, lug'at, marosim, an'ana, udum, milliylik, madaniyat, xalq, ma'naviyat.

## **NATIONAL AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF ETHNOGRAPHIC TESTS IN THE TEXT OF KHUSHKELDI**

**Gulmuradova Sobira Rustam daughter**

Tel: +998995939295

Samarkand, Uzbekistan

**Annotation.** In this article, Ergash Jamanbulbul is conducted on lingvocultural properties of ethnographic circles in the text of the chylesty chain.

**Key words:** Ethnographism, comment, dictionary, tradition, nationality, culture, nation.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari tili o'zining lug'at boyligining bepoyonligi bilan boshqa janrlardagi asarlardan keskin farqlanib turadi. Chunki xalq dostonlari uchun tilda taqiqlangan hodisa mavjud emas. Shunday ekan, ayniqsa, xalq dostonlari tilida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan til ko'rinishlarini lingvistik tahlilga tortish ma'lum xulosalar chiqarishga imkon yaratishi mumkin. Xalq og'zaki ijodi meteriallari xalq madaniyatini, ruhiyatini o'zida aks ettirgan hisoblanadi.

Leksik birliklar semantikasida umuminsoniyatga yoki muayyan etnosga xos madaniyat belgilari ham aks etadi. Muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida ochib beriladi. Ayni shu birliklar tilning milliy-madaniylik belgisini yorqin namoyish eta oladi. Masalan, qurbanlik, kelinsalom, hayit, do'ppi, chopon, ro'mol leksemalari denotativ ma'nosidan tashqari, ular ifoda etgan udum va kiyimlarning o'zbek xalqi madaniyatiga xosligi haqidagi ma'lumotni ham tashiydi. Etnografizmlar xalqning milliy madaniyat, qadriyatlarini ochib beruvchi yagona manbadir, chunki aynan, xalq dostonlari, qadimgi yozma yodgorliklar mantnini o'rganish orqaligina o'tmis xalqlar hayoti, turmush-tarzi haqida ma'lum xulosaga kelishimiz mumkin. Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan "Xushkeldi" dostoni matnidagi turli bo'yoqdorlikka ega etnografizmlar ham milliy madaniyatimiz fondiga salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi. Unda milliy madaniyat unsurlari: miflar, inonchlar, milliy falsafa, milliy pedagogika, estetik qarashlar va tasavvurlar, badiiy did, axloq va ideallar jamlangan. Shu jihatdan ham folklorni o'rganish xalq madaniyatini o'rganishga yo'l ochadi. Bu kabi tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda folklor janrlarini lingvokulturologik yo'nalishda o'rganishga e'tibor kuchayib bormoqda. *Moddiy-madaniy etnoleksemalar*

(dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi ishlab chiqarish bilan bog'liq predmetlarni ifodalovchi etnografizmlar). Har bir xalqning moddiy madaniyati uning turar joyi, uyi va uy jihozlari, kiyim-kechagi va bezaklari, taomlari va ro'zg'or buyumlari bilan belgilanadi. Asosan, tabiiy-geografik sharoit va iqlim ta'sirida milliy ruhiyat va xarakterni ifodalovchi moddiy madaniyat namunalari uzoq tarixiy davr davomida shakllanib o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Ushbu guruh etnografizmlariga "Xushkeldi" dostoni tarkibidan, asosan, *chorvachilik* (xususan, yilqichilik) bilan bog'liq etnografizmlarni olamiz:

- Yilqichilik bilan bog'liq kasblar: sayis (arabcha otboqar) — O'rta Osiyo xonliklarida harbiy va xo'jalik ehtiyojlari uchun saqlangan otlarni parvarish qiluvchi shaxs. Sayislar bevosita otxonalar yoniga qurilgan maxsus uylar, sayissxonalarda istiqomat qilishgan. Sayislar boshlig'i miroxur deb atalgan. Sinchi otlarning naslini, yoshini, zotini, fe'l-avorini yaxshi biladigan odam;
- Yilqilarga beriladigan oziq nomlari: o't-yem, arpa, chim, yem, mayiz;
- Ot va unga bog'liq harakat-holatlar nomlari: saraja qilmoq, qamchi chotmoq, shabgir tortmoq, pishnatmoq, suvlig'ini chaynatmoq, tobga keltirmoq, orqaga tis qilmoq, bellik bo'ktarib, otidan yakdila bo'lmoq, qarsoqday qotmoq, chalvar qildi, oppoq ko'pikka botmoq, o'tlatmoq, qabatlashmoq;
- Ot va unga bog'liq o'yin: ko'pkari, poyga bilan bog'liq etnografizmlar: ko'pkari tashlamoq, halol chiqish, harom olish, poygani bermoq, poygani olmay ketmoq.

Doston matnidagi etnografik birliklarni o'rganish jarayonida shunga amin bo'lish mumkinki, undagi etnografizmlarning asosiy qismini, aynan, ornitonimlar tashkil etadi, bu esa, o'z navbatda, turkiy xalqlarning otlarga bo'lgan munosabatini oydinlashtiradi, xususan, quyidagi o'rinda ham ko'saning Boycho'ntoq oti shunday ta'riflanadi: "Ikki qarich sera ekan qulog'i, Chu desa tog'larni chog'lar dimog'i. Orqasidan dobir chiqsa Boycho'ntoq, Onda-sonda bir tegadi oyog'i. Yerga tegmay jayrag'irning tuyog'i, G'irko'kka yetkizmay degan siyog'i".

Shuningdek, ot bilan bog'liq maqol va iboralarni ham kuzatamiz: Yomon otli yo'lida qolar, Yobi mingan odam tolar.

O'zbek xalqi madaniyatining yana bir ko'rinishi marosimlar bo'lib, ular milliy o'ziga xoslik belgilaridan biri hisoblanadi, dostonda to'y tasviri va, asosiysi, kelin sarpolari bilan bog'liq ko'plab etnik birliklarni uchratamiz:

- *bo'g'chadagi sarpoysi* – ma'lumki, bo'yи yetgan qizga sarpo yig'ish bugungi kun an'analarida ham mavjud bo'lib, ushbu udumning ildizlari, demakki, xalq dostonlarida kuzatiladi, bu esa xalqimizning o'z milliy an'analariga sadoqatining yana bir isboti hisoblanadi.
- *shabnami balxi ro'molim* – ro'mol o'zbek milliy mentalitetida xotin-qizlarga xos bo'lган iffat, hayo ramzi hisoblanadi, dostonda ro'mol o'rash bilan bog'liq o'rnlarda o'zbek qizlarining azaliy milliy aksini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda I. Jabborovning O'zbek ayollarining kiyim-kechaklari haqidagi fikrini ham keltirish o'rnlidir: "O'zbeklarning ayollarasi ipakdan tikilgan doirasimon shakldagi gulli taxyo (do'ppi) ga ipdan yoki qush patidan popuk o'rnatganlar, tangalar osganlar. Taxyo ustidan odatda ro'mol yopingan. Bu yerda ro'mol turlari ko'p bo'lgan: mahalliy ustalar to'qigan oq takana va ipak ro'mol (chitkor gul bosgan), jundan to'qilgan naqshli sergul ro'mol, chetdan keltirilgan boku ro'mol, parang (fransuz yoki ovro'pa) ro'moli va hokazolar.
- *oppoq upani* – gigiyena va kosmetika maqsadlarida ishlatiladigan xushbo'y va nihoyatda mayin kukun.
- *zarli tupakni* – xotin-qizlar sochiga bezak uchun taqiladigan buyum.

- *mezar kovushim* – oyoq kiyimi, charmdan tikilgan, odatda, mahsi bilan kiyiladigan oyoq kiyimi.

*Ijtimoiy-milliy etnografizmlar.* Dostonda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan etnik birliklar ham salmoqli o'ringa ega, jumladan, dostonlarda o'ndan ortiq *kash nomlari*:

- harbiy sahaga oid kasblar: *tug'dor, shig'ovul, yasovul, tug' ushlar, tug'begilar, chindovul, lashkarboshi, tug'boshi*;

- davlat boshqaruviga oid kasblar: *to'qsabo, g'ozi, otaliqlar, salom og'a, eshik og'asilar, mahram, dodxoh, umaro, asoli hudaychilar, amaldor, qozi, biy, mufti, munshi – mirza, muhr dor*;

- ilm-fanga doir kasblar: *umarolar, fuzalolar, shogirdi ko'p ulamolar*;

- saroy otxonasiga mas'ul kasblar: *Otboshi, miroxo'r, cho'pon*.

*Ma'naviy madaniyat bilan bog'liq etnografizmlar* (din, til, musiqa, adabiyot, san'at). Ushbu guruh etnografizmlariga doston tarkibidan, asosan, *diniy qarashlar* bilan bog'liq etnik birliklarni keltirishimiz mumkin:

- *Yagonaga sig'inib, sig'inibdi Yaratganning o'ziga* – ushbu birliklar Tangrining yagonaligiga ishora qiladi.

- *dorilbaqo, iymon, qiyomat* (arabcha o'liliklarning tirilishi, tik turish, o'rindan turish) - dunyoning tugashi haqidagi diniy ta'limot. Islomda oxirat aqidasini tashkil etadi.

- *qambarlar, chiltanlar, avliyo, vali, eshon* – islom dini bilan aloqador bo'lgan teonimik qarashlar, asosan, kishilarga mushkul vaziyatlarda yordamga keluvchi kuchlar.

Dostonda bunday birliklarning keng ko'lamma qo'llanilishi xalqning diniy dunyoqarashi yuksak ekanligidan dalolat beribgina qolmasdan, diniy aqidalarning xalqimiz tomonidan hurmat bilan qabul qilinganligini, islom diniga sadoqati va hurmatini ham oydinlashtiradi.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1994. 154-bet.
2. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. –Toshkent, 1991. 118-bet.
3. Усмонова О. О. Ўзбек туй маросим фолклорида “Келин салом” (генезиси, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Тошкент, 1999.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR  
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.